

XALQARO MOLIYAVIY INQIROZLAR: SABAB VA OQIBATLARI

Sharofiddinov Abbosjon Olimjon o‘g‘li¹

¹ O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.06.2025

Revised: 12.06.2025

Accepted: 13.06.2025

KALIT SO’ZLAR:

*xalqaro moliya,
inqirozlar, moliyaviy
tanazzul, sikl, moliyaviy
pasayish, turg ‘unlik,
bankrotlik, jahon
moliyasi.*

Mazkur maqolada iqtisodiy o‘sishning uzoq va qisqa muddatli xarakteri, iqtisodiy sikllar va ularning bosqichlari tahlil etilgan. Qisqa muddatli davrda iqtisodiyotda yuzaga keladigan tebranishlar iqtisodiy sikllar yoki tebranishlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada Kitshin, Jyuglar, Kuznets va Kondratev kabi taniqli iqtisodchilar tomonidan taklif qilingan iqtisodiy sikl turlari tavsiflangan. Har bir siklning davomiyligi, sabab omillari va iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, jahon tarixida yuzaga kelgan asosiy moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar: 1857 yilgi birinchi jahon inqirozi, 1929-1933 yillardagi Buyuk depressiya, 1973 yilgi energetik inqiroz, 1997 yilgi Osiyo inqirozi va boshqalar haqida mufassal ma’lumot berilgan. Ularning sabab va oqibatlari jadval asosida ko‘rsatilgan. Iqtisodiy globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari ham ko‘rib chiqilgan.

KIRISH. Uzoq muddatli davrda doimiy iqtisodiy o‘sish tendentsiyasi aniq namoyon bo‘ladi. Biroq, qisqa muddatli davrda uning rivojlanishi iqtisodiy kon'yunkturadagi ko‘tarilish va pasayish to‘lqlilari bilan tavsiflanadi. Makroiqtisodiy dinamikaning to‘lqlini tabiatining qonuniyatları iqtisodiy (faollik) siklning muammosi sifatida qaraladi.

Ishlab shiqarish, bandlilik va inflatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o‘tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barshasi bir xil bosqishlardan tashkil topadi.

Iqtisodiy sikl, bir tomondan, iqtisodiyot rivojlanishidagi notekislikni aks yettiради, иккиншидан, бу iqtisodiy rivojlanishning sababi va natijasidir, iqtisodiyotning rivojlanishini belgilaydigan doimiy dinamik xarakteristikasi sifatida ko'rib shiqishga imkon beradi.

Iqtisodiy davrlar to'rtta bosqishni o'z ishiga oladi: «sho'qqi», pasayish (resessiya), pasayishning quyi nuqtasidagi turg'unlik, ko'tarilish bosqishi. Birinshi bosqish iqtisodiy rivojlanishning yeng yuqori darajasiga yerishilgan bosqish bo'lib, u «sho'kki» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to'liq bandlik, ishlab shiqarish to'la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o'sish holati kuzatiladi. Keyingi bosqish pasayish (resessiya) bosqishidir. Bunda ishlab shiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o'sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqish faol va uzo davom yesagina baxoning o'sish darajasi sustlashishi mumkin. Pasayishning quyi nuqtasida ishlab shiqarish va bandlik yeng quyi darajaga tushadi va turg'unlik davri boshlanadi.

Ko'tarilish bosqishida ishlab shiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab shiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlik darajasiga yerishiladi.

Iqtisodiy davrlar bir xil bosqishlarga yega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. Shuning ushun ham iqtisodshilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb yemas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodshilar ush omilni ko'rsatadi:

- 1)texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar;
- 2)siyosiy va tasodifiy vaziyatlar;
- 3)monetar omillar.

Barsha iqtisodshilar, ishlab shiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqasha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir yetuvshi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barsha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

Hozirgi zamonda iqtisodiy fanida iqtisodiy siklning 1380 dan ortiq turlari mavjudligi ta'kidlanadi. Quyidagi 1-jadvalda ularning ko'philik iqtisodshilar tomonidan tan olingan yeng asosiy turlari ifodalangan.

1-jadval. Sikllarning asosiy turlari

Sikl turlari	Siklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitshin sikli	2-4 yil	Zahiralar miqdori → YAMM, inflatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari
Jyuglar sikli	7-12 yil	Investitsion sikl → YAMM, inflatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets sikli	16-25 yil	Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab → daromad

Kondratev sikli	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar
-----------------	-----------	--

Manba: Muallif ishlanmasi.

Kitshin sikli zahiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitshin (1926 yil) o'z ye'tiborini tovar zahiralarining harakat shog'idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgasha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa u siklning davomiyligini jahondagi oltin zahiralarining tebranishlari bilan bog'lab, uni 3 yilu 4 oyga teng, deb hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko'pshilik iqtisodshilarni qoniqtirmaydi.

Jyuglar sikli «biznes-sikl, «sanoat sikli, «o'rtasha sikl' kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Frantsiya, Angliya va AQShda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan Klement Juglar (1819-1905 y.) nomi bilan ataladi.

Birinshi sanoat sikli 1825 yili Angliyada metallurgiya va boshqa yetakshi tarmoqlarda mashinali ishlab shiqarish hukmron mavqeni yegallagan davrda kuzatiladi. 1836 yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQShga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AQSH va qator yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko'ra birinshi jahon sanoat inqirozi bo'lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgasha qisqargan. AQSH va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan keshirgan bo'lib, ulardan yettitasi ikkinshi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

Kuznets sikli ko'p hollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20 yilgasha bo'lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o'zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida milliy daromad, iste'mol sarflari, ishlab shiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkishlarida 20 yillik o'zaro bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini ko'rsatib bergan. 1955 yilda amerikalik iqtisodshining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to'lqinlar» sikli deb ham ataladi. sikllilikning bu nazariyasini ishlab shiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo'shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Frantsiya va AQShning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'p omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlari kapital ushun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkishlarning o'rtasha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

I-sikl: 1787-1814 yillar – ko'taruvshti to'lqin; 1814-1851 yillar – pasaytiruvshi to'lqin.

II-sikl: 1844-1851 yillar – ko'taruvshti to'lqin; 1870-1896 yillar – pasaytiruvshi to'lqin.

III-sikl: 1896-1920 yillar – ko'taruvshti to'lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o'rtasha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks yettirishi hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bozordagi talab va taklifning miqdori, tarkibi jihatdan bir-biriga muvofiqligini, ya'ni bozor muvozanatini ta'minlash va saqlash muhim ahamiyat kasb yetadi. Bozor muvozanatini ta'minlashning asosiy yo'llari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tovar ishlab shiqarishni talab darajasiga yetkazish orqali bozorni to'ldirish;
- yetarli tovarlar zahirasini barpo yetish;
- talab qilinayotgan tovarlar narxini oshirish;
- o'tmay turgan tovarlar narxini pasaytirish;
- yeksport va importning ortishi hamda kamayishi;
- aholi daromadlarining tovarlar va xizmatlar ko'payishiga qarab ortib borishi;
- mehnat unumdarligining ish haqiga nisbatan tezroq o'sishi.

Umuman olganda, bozor muvozanati, odatda, bozorni tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Bunday tartiblarga amal qilinmasligi yoxud ularning buzilishi bir qansha salbiy oqibatlarga olib kelishi, oxir-oqibat mamlakatda inqiroz holatlarining yuzaga kelishiga sharoit yaratishi mumkin.

Inqiroz - kutilmagan darajada jamiyatning barsha jahbalariga zarar keltiradigan va yangisha faoliyat yuritishga undaydigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy vokelikdir.

Moliyaviy inqiroz – bu moliyaviy nobarqarorlik davri bo'lib, uning natijasida ijtimoiy keskinlik, siyosiy tavakkalshiliklar rivojlanishi, iqtisodiy pasayish va vaqtinshalik inqiroz hodisalari ustidan nazoratning yo'qotilishi yuzaga keladi.

Hozirda jahon mamlakatlarining iqtisodiy globallashuvi tobora kushayib borayotganligi tufayli muayyan davlat iqtisodiyotida salbiy hodisalarning ro'y berishi, albatta, boshqa davlatlar iqtisodiyotiga ham ta'sir yetmay qolmaydi. Bunday ta'sir, ayniqsa, bugungi kundagi iqtisodiy globallashuv sharoitida inobatga olsak, yanada tezlashadi. Bundan ko'rindiki, iqtisodiy globallashuvning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari:

- mamlakatlar yaxlit iqtisodiy tizim bo'lib rivojlanadi;
- xalqaro ishlab shiqarish kooperatsiyasi tashkil topadi;
- xalqaro mehnat taqsimoti vujudga keladi;
- iqtisodiy rivojlanish tezlashadi.

Salbiy tomonlari:

- shegarasiz ta'sir kuzatiladi (bir yoki bir nesha mamlakatlarda ro'y bergen ijtimoiy-iqtisodiy zarbalar muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ta'sir qiladi. Masalan, moliyaviy inqiroz);

- mamlakatlar orasida ishlab shiqarish bilan iste'mol o'rtasida juda katta ziddiyatlar yuzaga keladi.

Iqtisodiy globallashuv – bu jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvshi iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil topishi va rivojlanishidir.

Moliyaviy inqiroz haqida so‘z yuritar yekanmiz, "o‘tmishda bunday inqirozlar sodir bo‘lganmi", "ularning bugungi kunda global muammoga aylangan jahon moliyaviy inqirozidan qanday farqli jihatlari mavjud)" kabi savollar xayolimizdan o‘tishi tabiiy. Yeng avvalo, quyida biz ushbu masalalar xususida to‘xtalib o‘tamiz.

So‘nggi ikki asr davomida har tomonlama, jumladan, iqtisodiyotda xalqaro integratsiyalashuv kushaydi. Sirasini aytganda, bir mamlakat o‘z ishki imkoniyatlari orqali aholi yehtiyojlarini qondirishi mumkin bo‘lmay qoldi va o‘z-o‘zidan turli mamlakatlar o‘rtasida tovar ayriboshlash sohasida aloqalar kushaydi. Lekin buning o‘ziga xos salbiy jihatlari ham bor yedi. Xusan, bir mamlakatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy inqiroz o‘z-o‘zidan ikkinshi bir mamlakatga ta’sir yetmasdan qolmasdi.

Sanoatlashgan jamiyat takomillashishi va o‘zgarishi bilan bir qatorda, bu davr ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotida qator inqirozlarni olib kelgan davr sifatida xarakterlanadi. Bunday inqirozlar paytida ishlab shiqarish sohasiga diqqat bilan nazar tashlasak, bozorda muomalaga kiritilmagan tovarlar to‘planib qolishi, narxlar pasayishi, hisoblash va bank tizimi halokatli holga kelishi, tijorat firmalari va ishlab shiqaruvshilarning xonavayron bo‘lishi, ishsizlik darajasi keskin ko‘tarilishi kuzatiladi. Maxsus adabiyotlarda iqtisodiy inqiroz tovarlar va xizmatlarning talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan xarakterlanishi ta’kidlanadi. Demak, bozordagi muvozanatning buzilishi, ya’ni tovar (xizmat, ish)larga bo‘lgan talab va taklifning miqdor hamda tarkib bir-biriga fiq kelishi, inqirozni keltirib shiqaradi.

Iqtisodiy inqiroz – bu iqtisodiy tanglik yoki iqtisodiy faollik (ishlab shiqarish hajmi, bandlik va inflatsiya darajasi)dagi davriy tebranishlardir. Tovar (xizmat, ish)larga bo‘lgan yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik, makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi oqibatida vujudga keladi.

Iqtisodiyotda bunday inqirozlar davrida jamiyat taraqqiyoti nomuayyan muddatga orqaga surilishi, ishlab shiqarish hajmining kamayishi, ayrim turdag'i tovarlarga nisbatan talabning keskin pasayishi, pul aylanmasining qisqarishi ishsizlar sonining ortishi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Bunday oqibatlar iqtisodiyotning barsha sohalariga zarar yetkazgani kabi davlatning moliya tizimiga, moliya siyosatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Iqtisodiy inqirozlar XX asrgasha bir, ikki yoki ushta mamlakatlar doirasida sheklanib qolgan, so‘ngra xalqaro ahamiyat kasb yeta boshlagan. Keyingi ikki asr mobaynidagi Yevrosiyo va Amerikada 20 ga yaqin moliyaviy-iqtisodiy inqiroz holatlari kuzatilgan. Quyida ayrimlarining xronologiyasi va o‘ziga xos xususiyatlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

1857 yildagi birinshi jahon iqtisodiy inqirozi

Birinshi inqiroz 1857 yildagi voqeа, ya’ni bir vaqtning o‘zida AQSH, Germaniya, Angliya va Fransiyada xalq xo‘jaligi va jamiyat hayotiga yetkazilgan kushli zarba natijasida

sodir bo'ldi. Aslida inqiroz AQShda boshlangan yedi. Inqirozga temir yo'l kompaniyalarining ommaviy bankrotligi va bozorda aksiya narxlarining tushib ketishi sabab bo'ldi. Shu yili inqiroz Angliyaga ham ta'sir qildi, so'ngra butun Yevropani qamrab oldi. Mazkur inqiroz to'lqinlari hatto Lotin Amerikasigasha yetib bordi. Inqiroz davrida AQShda sho'yan ishlab shiqarish 20 96 ga, paxta yetishtirish 27 96 ga qisqardi. Buyuk Britaniyada kemasozlik sohasida ishlab shiqarish hajmi 26 96 ga kamaydi. Germaniyada sho'yandan foydalanish 25 96 ga, Fransiyada yesa, sho'yan yeritish 13 96 ga va paxta yetishtirish yana shunsha foizga qisqardi. Rossiyada sho'yan yeritish 14 96 ga qisqargan.

1873-1878 yillardagi xalqaro moliyaviy inqiroz

Navbatdagi jahon iqtisodiy inqirozi 1873 yilda Avstriya va Germaniyada boshlandi va xalqaro moliyaviy inqiroz sifatida baholandi. Avstriya va Germaniya bozorlarida shayqovshilikning o'sishi va Lotin Amerikasida kreditlarning oshishi inqiroz ushun dastlabki sharoit yedi. Avstriya va Germaniya bozorlarida shayqovshilikning o'sishi may oyida Venada fond birjalarining tugatilishiga olib keldi. Bunday fond birjalari Syurix va Amsterdam shaharlarida ham tugatila boshlandi. AQShda banklardagi "vahima" Nyu-York fond birjalaridagi aksiyalar keskin pasayishidan boshlandi va Birlanshgan Tinch okeani temir yo'llari korporatsiyasi Prezidenti Jey Kuk va mamlakatdagi boshqa asosiy moliyashilarining bankrotligiga olib keldi. Amerika va Yevropadagi retsessiya va iqtisodiy pasayish Lotin Amerikasi mamlakatlarida davlat byudjetining asosiy qismini tashkil yetuvshi yeksport tovarlarni keskin qisqartirdi. Inqiroz 1878 yilda tugallandi hamda kapitalizm inqirozi tarixida yeng uzoqqa sho'zilgan inqiroz sifatida ye'tirof yetildi.

1914 yildagi moliyaviy inqiroz

1914 yilda boshlangan xalqaro moliyaviy inqiroz birinshi jahon urushi boshlanishiga asosiy ishora yedi. Inqirozga AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya hukumatlari tomonidan harbiy harakatlarni moliyalashtirish ushun shet yel yeminentlarining barsha qimmatli qog'ozlarini sotib olishlari asosiy sabab bo'ldi. Bu inqiroz jahonda sodir bo'lган boshqa inqirozlardan farq qilgan holda markazdan boshqa hududlarga yoyilmadi, amalda bir nesha davlatlarda bir vaqtning o'zida boshlandi. So'ngra birinshi jahon urushida qatnashayogan tomonlar shet yel aktivlarini tugatishdi.

Retsessiya - bu iqtisodiy yuksalishning sho'qqi nuqtasidan keyingi faza bo'lib, u ishlab shiqarishni, iqtisodiyotda o'sish sur'atlarini, birja indekslarining ommaviy pasayishi hamda ishsizlik darajasining oshishini xarakterlaydi. Bankdagi vahimalar AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa ko'plab davlatlarda Markaziy bankning intervensiylarini kamaytirishga olib keldi.

1920-1922 yillardagi iqtisodiy inqiroz


Keyingi jahon iqtisodiy inqirozi urushdan keyingi deflyasiya va retsessiya oqibatida 1920-1922 yillarda sodir bo'ldi. Deflyasiya - bu pulning qadrini oshirish ushun muomaladagi qog'oz pullar va banknotlar miqdorini kamaytirish. Bu hodisa Daniya, Italiya,

Finlyandiya, Niderlandiya, Norvegiya, AQSH va Buyuk Britaniyadagi bank va pul inqirozlari bilan bevosita bog'liq yedi.

1929-1933 yillardagi Buyuk depressiya davri (manbalarda bu davr "qora payshanba" nomi bilan ham mashhur)

1929 yil 24 oktabrda ("qora payshanba") Nyu-York fond birjalarida aksiyalarning keskin tushishi jahon iqtisodiy inqirozi tarixida yangi bir davrni boshlab berdi. Qimmatli qog'ozlar 60-70 26 ga pasaydi, jahon valyutasiga nisbatan oltin standartlari bekor bo'ldi. Yeng ishonshli Amerika telefon va telegraf kompaniyalari, Umumjahon yelektr kompaniyasi, Umumjahon dvigatel kompaniyalarining aksiyalari narxi bir xaftha ishida 200 funtgasha pasaydi. Oy oxirida ushlanib kolgan aksiyalar 15 mlrd. dollarni tashkil yetdi. Bu ko'rsatkish 1929 yil oxiriga borib 40 mlrd. dollargasha yetib bordi. Ko'pgina ishlab shiqarish korxonalari yopildi, banklar "sindi", millionlab ishsizlar paydo bo'ldi. Inqiroz 1933 yilgasha davom yetdi, lekin uning oqibatlari qirqinshi yil boshlariga qadar davom yetdi.


Aksiya - aksionerlik jamiyat shiqargan qimmatbaho (daromad keltiruvshi) qog'oz. Aksiya yegasining shu jamiyat mablag'iqa qo'shgan hissasini va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend tariqasida olishni, uni boshqarib turishda qatnasha olishini tasdiqlaydi. Ishlab shiqarish hajmi inqiroz davrida AQShda 46 %, Buyuk Britaniya 24%, Germaniya 41%, Fransiyada 32 % ga qisqardi. Ishlab shikarish kompaniyalarining aksiya kurslari AKShda 87 %, Buyuk Britaniyada 48 %, Germaniyada 64 %, Fransiyada 60 % ga pasaydi. Maxsus ma'lumotlarga kura, 1933 yilda 32 ta mamlakatda 30 mln.ga yaqin ishsizlar ro'yxatga olingan, AQShda yesa, bu ko'rsatkish 14 mln. kishini tashkil yetdi. Ishsizlarning oila a'zolari bilan qo'shib hisoblaganda jami 100 mln.ga yaqin kishi jabr ko'rgan. 15 ta yetakshi mamlakatda 20 mingga yaqin ish tashlashlar bo'lib, ularda qariyb 10 mln. kishi ishtirok yetdi.



1929-1933-yillar mobaynida rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmining pasayish dinamikasi

1-rasm. 1929-1933 yillar moboynida rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmining pasayish dinamikasi

Manba: Bekmurodov N. Makroiqtisodiyot. Darslik. Toshkent, Booknomy print nashriyoti, 2023. – 45 b.



2-rasm. 1929-1933 yillar moboynida rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish kompaniyalari aksiya kurslarining pasayish dinamikasi

Manba: Bekmurodov N. Makroiqtisodiyot. Darslik. Toshkent, Booknomy print nashriyoti, 2023. – 48 b.

Mazkur inqiroz jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida yeng og‘ir va halokatli inqiroz bo‘ldi. U butun jamiyatning iqtisodiy asosini titratibgina qolmay, og‘ir ijtimoiy va siyosiy oqibatlarga ham olib keldi.

Yevropa xaritasining urushdan keyingi tuzilishi an’anaviy xo‘jalik aloqalariga putur yetkazdi, jahon iqtisodiyoti savdo va moliya munosabatlariga o‘zgartirish kiritdi. Faqat qit’alar o‘rtasida yemas, qo‘shti mamlakatlar o‘rtasida ham aloqalar buzildi. Butun Yevropa mahsulot ishlab shiqaruvshilar va iste’molshilar, xom ashyo beruvshilar va tayyor mahsulot ishlab shiqaruvshilar o‘rtasidagi an’anaviy aloqalarni uzgan bojaxona to‘siqlari, proteksionistik bojaxona soliqlariga to‘lib-toshdi.

Proteksionizm siyosati (lot. protestion - himoya, yashirish) - ishki bozorni shet yelliklardan yeksportni oshirish va importni sheklash, katta bojaxona soliqlarini belgilash va boshqa qator shoralar vositasida himoya qilish siyosati.

1957-1958 yillardagi iqtisodiy inqiroz


Ikkinski jahon urushidan keyingi birinshi iqtisodiy inqiroz 1957 yil oxirlarida boshlandi va 1958 yil o'rtalarigasha davom yetdi. U AKSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Belgiya, Niderlandiya va boshka bir qansha kapitalistik mamlakatlarni qamrab oldi. Bu paytda harbiy ishsizlar soni 10 mln. kishini tashkil yetgan.

1973 yilgi iqtisodiy inqiroz

Yana bir iqtisodiy inqiroz 1973 yil oxirida AQShda boshlandi. Inqiroz davrida AQShda ishlab shiqarish hajmi 13 %, Yaponiyada 20 %, GFRda 22 %, Buyuk Britaniyada 10 %, Fransiyada 13 %, Italiyada 14 % ga qisqardi. Aksiya kurslari bir yil ishida - 1973 yil dekabrdan 1974 yil dekabrgasha – AQShda 33 %, Italiyada 28 % ga pasaydi. 1974 yilda bankrot korxonalar soni 1973 yildagiga nisbatan AQShda 6 %, Yaponiyada 42 %, GFRda 40 %, Buyuk Britaniyada 47 %, Fransiyada 27 % ga oshdi. 1975 yilning o'rtalariga kelib barsha kapitalistik mamlakatlarda ishsizlar soni 15 mln. kishini tashkil yetgan.

1973 yilgi Birinshi yenergiya inqirozi

Shuningdek, 1973 yilda OPEKka a'zo mamlakatlarda neft' qazib shiqarish hajmining keskin pasayishi natijasida birinshi yenergiya inqirozi yuzaga keldi. 1973 yilda 1 barrel "qora oltin"ning bahosi 67 % ga – 3 dollardan 5 dollargasha ko'tarildi. 1974 yilda yesa bu miqdor 12 dollargasha oshdi.



3-rasm. 1973-1974 yillarda rivojlangan mamlakatlarda bankrot korxonalar miqdori

Manba: Bekmurodov N. Makroiqtisodiyot. Darslik. Toshkent, Booknomy print nashriyoti, 2023. – 51 b.

1987 yildagi iqtisodiy inqiroz – "qora dushanba"

1987 yil 19 oktabrda AQShning "Dow Jones Industrial" fond indeksi 22,6 % ga qisqardi. Uning izidan Avstraliya, Kanada, Gonkongda ham shunday holatlar kuzatildi. 1980 yillarning oxirida Meksika hukumati mamlakatga shet yel investitsiyasini kiritish siyosatini qo'llay boshladi. 1989-1994 yillar orasida Meksikaga shet yel kapitali tinmay oqib keldi. Natijada 1994-1995 yillarda Meksikada inqiroz boshlanib ketdi. 1995 yilda Meksikaning tashqi qarzları 10 mlrd. dollarni tashkil yetdi. Bu inqiroz barsha bank tizimini qamrab oldi va ko'plab banklarning "sinish" holatlari kuzatildi.

1-jadval

Iqtisodiy inqirozning sabab va oqibatlari

Yillar	Sabablari	Oqibatlari
Osiyo mamlakatlari (Avstraliya, Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Tayland)		
1997-1999	Valuta bozorlaridagi spekulativ hujumlar, valyuta va aksiya bozorida ikki tomonlama oyin, offshor treyding	Bank-moliya tizimining qulashi, kapitalning shiqib ketishi, iqtisodiy pasayish va h.k.
Turkiya Respublikasi		
1994	Qimmatli qog'ozlar bozori va valuta inqirozining davlat qarziga ta'siri	Narxlarning keskin oshirilib, muzlatilishi, korporativ sektoriga alohida soliq, davlat xarajatlarini qisqartirish hukumat qarz majburiyatlarining restrukturizasi yaqilinishi
2000-2002	Valuta va bank inqirozi (moliyaviy inqiroz)	Iqtisodiy pasayish, milliy valutaning qadirsizlanishi, inflatsiyaning oshishi, kapitalning shiqib ketishi, budget defisiti
Janubiy Afrika Respublikasi		
1998	Obligatsiya bozori inqirozining valuta inqirozini keltirib shiqarilishi	Obligatsiya va milliy valuta kurslarining tushushi
Rossiya		

1998	Rossiyadagi tizimli inqirozning valuta inqirozini keltirib shiqarishi	Kapital shiqib ketishi, milliy valutaning devalvatsiyasi, oltin zahiralarining kamayishi
------	---	--

Manba: Muallif ishlanmasi.

1997 yilgi Osiyo inqirozi

Bu inqiroz Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini qamrab oldi. Iqtisodiy ma'lumotlarga ko'ra, inqiroz jahon hamjamiyatiga 2 trln. dollar miqdorida zarar yetkazdi.

1998 yilgi Rossiya inqirozi

Bu inqiroz Rossiya tarixida yeng qiyin keshgan iqtisodiy inqirozlardan biridir. Asosiy sabab sifatida Rossiya davlat qarzining ko'payib ketishi, jahon bozorida xom ashyo narxining tushib ketishi (Rossiya jahon bozoriga katta miqdorda neftv va gaz yetkazib buruvshi davlat hisoblanadi) va Rossiya hukumatining to'lov qobiliyati bo'lmasada, qisqa muddatli obligatsiyalarning ko'payishi kuzatildi. Rubl kursi dollarga nisbatan 1998 yil avgust – 1999 yil yanvar oylarida 3 karra tushdi (1 dollar - 6 rubldan 21 rublgasha) (<http://gb.ru/arshives/207>).